

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**HISTORICISM AND ARTISTIC IMAGINATION IN CREATING THE IMAGE OF THE CHAHORYORS****Javokhirbek Sayidolimov**

Senior Lecturer, Department of Literary Studies

Faculty of Philology, Fergana State University

Doctor of Philosophy in Philology

Email: javoxirsayidolimov@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** classical literature, manakib, holot, memoirs, biographical work.**Received:** 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25

Abstract: This article talks about the image of chahoryors (the four caliphs who ruled the caliphate after Muhammad were Abu Bakr. Umar. Usman, Ali), which is outlined in the introduction to the works that demonstrate the tradition and originality that have been formed in Uzbek literature. The image in question is how the Personality of Abu Bakr, the first of the chahoryors, is illuminated in fiction, in the process of giving historical reality in an artistic way is shown through the work of Alisher Nawai "Lison ut-tayr".

CHAHORYORLAR OBRAZINI YARATISHDA TARIXIYLIK VA BADIY TO'QIMA**Javoxirbek Sayidolimov**

Filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Farg'ona davlat universiteti

javoxirsayidolimov@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, manokib, holot, me'muar, biografik asar, xotira asar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotda shakllangan an'ana va o'ziga xoslikni namoyon etuvchi asarlarning kirish qismida bayon etilgan chahoryorlar (Muhammada payg'ambardan so'ng xalifalikni boshqargan to'rt xalifa Abu Bakr. Umar. Usmon, Ali) obrazi haqida so'z yuritilgan. Mazkur obraz chahoryorlarning birinchisi bo'lgan Abu Bakr shaxsiyatining

badiiy adabiyotda qanday yoritilganligi, bu jarayonda tarixiy haqiqatning badiiy usulda berilishi Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari orqali ko‘rsatib berilgan.

ИСТОРИЗМ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФАКТУРА В СОЗДАНИИ ОБРАЗА ЧАХОРЁРИ

Джавохирбек Сайидолимов

Старший преподаватель, кафедра литературоведения

Доктор философии по филологии

Филологический факультет, Ферганский государственный университет

javoxirsayidolimov@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: классическая литература, манакиб, холот, мемуары, биографическое произведение.	Аннотация: В данной статье рассказывается об образе чахорьяров (четыре Халифа, правивших халифатом после пророка Мухаммада. Абу Бакр, Умар, Усман, Али), изложенном во введении к произведениям, отражающим сложившуюся в узбекской литературе традицию и самобытность. О том, как личность Абу Бакра, первого из чахорьяров, была освещена в художественной литературе, художественная передача исторической правды показана в произведении Алишера Навои “Лисон ут-тайр”.
---	--

Kirish. Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak bu davrda yaratilgan asarlar o‘zining mazmun-mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati bilan hozirgi kun uchun ham dolzar ahamiyatga ega. Xususan, asar muqaddimasi, ya’ni an’anaviy kirish qismida chahoryorlar obrazining yoritilishi ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni yanada teranroq anglash uchun kalit vazifasini bajargan. Alisher Navoiy ijodida ham chahoryorlar obrazi an’ana sifatida berilibgina qolmasdan, turkiy adabiyotda mazkur obrazlarning yangi taraqqiyot bosqichiga chiqqanligini ham namoyon etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. “Lison ut-tayr” dostonining yetti bobi, ya’ni beshinchi bobdan boshlab o‘n uchinchi bobga qadar chahoryorlar ta’rifiga bag‘ishlangan. Mazkur sakkiz bob mumtoz adabiyot namunalarining kirish qismlariga xos bo‘lgan an’ana bo‘lishi bilan bir qatorda asarning umumiy mazmuniga ham dahldor hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Dostonning beshinchi va oltinchi boblari chahoryorlarning birinchisi bo‘lmish hazrati Abu Bakrga bag‘ishlangan. “Abu Bak Siddiq (r.a.), to‘liq ismi Abu Bakr Siddiq Abdulloh ibn Abu Quhofa ibn Omir islomda xulafoi roshidin (to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar), Movarounnahrda chahoryorlar, choryorlar deb atalgan dastlabki 4 xalifadan birinchisi.

Asharai mubashsharadan. Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin safdoshlari... Muhammad (s.a.v.) da'vatlari bilan islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan. Islomga kirishdan oldin ismi Abdulk'ba bo'lgan" [1.20]. Ko'p hollarda ijodkorlar tomonidan Abu Bakr obrazi tasvirlanar ekan, uning birinchi bo'lib iymon keltirishi va shu sababli barcha sohada birinchi ekanligiga e'tibor qaratilgan. "Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi".

"Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam:

"Huzurimga Jabroil alayhissalom keldi va qo'limdan yetaklab borib menga ummatim kiradigan jannatning eshigini ko'rsatdi", dedilar. Shunda Abu Bakr:

"Ey Allohning Rasuli, men ham siz bilan bo'lib uni ko'rishni juda istadim", dedi. Bas, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ey Abu Bakr, ummatim ichida jannatga birinchi kiruvchi, albatta, sen bo'lasan", dedilar", (Abu Dovud rivoyat qilgan)" [2.7-8]. Har bir ijodkor yaratayotgan asarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda Abu Bakr hayotining turli jihatlarini ko'rsatib berishga harakat qilganlar. Alisher Navoiy ham "Lison ut-tayr" asarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda Abu Bakr obrazini o'ziga xos tarzda ochib bergan.

"Lison ut-tayr" dostonining beshinchi bob "Amirul-mo'minin Abu Bakr Siddiq roziollohu anhu ta'rifida" deb nomlangan bo'lib quyidagi jumlar bilan boshlanadi:

Ulki sultoni rasulning yoridur,

Soniy isnayn azhuma filg'oridur. [3.18]

(U barcha rasullarning sultoni Muhammad alayhissalomning do'sti,

G'orda Muhammad alayhissalom bilan azob tortgan eng yaqin do'st).

Abu Bakr obrazi nafaqat "Lison ut-tayr" dostonida, balki Alisher Navoiyning boshqa asarlarida ham alohida e'tibor bilan tasvirlangan. Umuman olganda, islom olamida va Sharq mumtoz adabiyotida mazkur obraz ijodkorlar tomonidan yuksak ilmiylik va badiiylik mezonlari asosida ta'riflanib kelingan. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"ning beshinchi bobida Abu Bakr obrazini ta'riflar ekan uning "siddiq"ligi haqida gapirar ekan dostonning umumiy mazmuni bilan bog'laydi:

Sodiqu siddiq hamrozi oning,

Har yomon-yaxshida damsozi oning.

Ul edi olam eliga rahnamun,

Keldi chun vassobiqun assobiqun.

Muqtadoi zumrai tahqiq ul,

Sobiq islom ahlig'a siddiq ul [3.18].

(Muhammad alayhissalomga sodiq-u siddiq do'st, payg'ambarning har qanday yaxshi yomon kunida hamrohi. Abu Bakr Muhammad alayhissalomdan so'ng yo'l boshlovchi edi. Abu Bakr haqiqat ahlining yo'l boshlovchisi. U islom diniga va musulmonlar ahliga Siddiqdir).

Mazkur jarayonda. Avvalambor. chahoryorlardan va sahobalardan hisoblangan Abu Bakrning nega SIDDIQ deb atalganligini bilib olishimiz lozim. “– Ey Abu Bakr, do‘sting Muhammad so‘zini ongladingmu, yana bir yangi yolg‘on chiqardi. Ikki oylik yo‘l – Quddus shahriga kechaning bir qismida borib keldim, deydur. Endi sen bunga ham ishona olurmisan? – dedilar. Anda Abu Bakr: – Agar shu so‘zni aning aytgani rost bo‘lsa, u to‘g‘ri aytgan, albatta, unga ishonurman. Chunki yetti qat osmon ustidan, kecha-kunduz soatlar ichida unga kelgan vahiy xabarlariga ishonib, uni tasdiq qilurman. Endi buni nechuk tasdiq qilmagayman, – dedilar. Mana shu kundan boshlab Payg‘ambarimiz Abu Bakrga «Siddiq» laqabini qo‘ydilar” [4.98]. Muhammad alayhissalomning payg‘ambarligi haqida Isro va Me’roj kechasidan keyin ko‘plab insonlarning qalbida shubha paydo bo‘lgan bir paytda Abu Bakr hech qanday e’tirozsiz bu voqeaga ishondi. Shu sababdan ham Siddiq laqabini oldilar. “Lison ut-tayr” dostoniga e’tibor qaratsak, ko‘plab qushlar Hudhudning ortidan Simurg‘ni izlab yo‘lga chiqdilar, lekin manzilga hammalari ham yeta olmadilar. Faqr-u fano vodiysiga faqatgina o‘ttizta qush yetib bordi. Beshinchi bobning dastlabki baytlarida aytilgan Alisher Navoiyning fikrlariga e’tibor qaratsak hamma ham talab vodiysiga kirishi mumkin, lekin hamma ham oxirigacha yetib bora olmaydi. “Lison ut-tayr” dostonida muallif haqni shunday majoz asosida berish orqali mohiyatni insonlarga yanada yaqinlashtirmoqchi ekanligini “Muhokamat ul-lug‘atay” asarida quyidagicha bayon etadi: “Chun “Lison ut-tayr” alhoni (kuy, ohang, xonish, ohang) bilan tarannum tuzubmen, qush tili ishorati bilan haqiqat asrorin majoz suratida ko‘rguzibmen”. Yuqorida Abu Bakr obraziga berilayotgan ta’riflarda ham buni ko‘rishimiz mumkin. Quyida keltirilgan shoirning fikrlariga e’tibor qaratsak yuqorida aytilgan fikrlar yanada oydinlashadi:

G‘or aro yorig‘a aylab jon nisor,
Yori oning otin aylab yorig‘or.
Ganjkim g‘or ichra pinhonliq qilib,
Ajdahodek ul nigohbonliq qilib.
G‘or zulmotida tortib chunki ranj,
Topib onda Xizr suyi birla ganj.
Ganj xud, ganji ilohiy yonida,
Kim kelib pinhon jahon vayronida [3.18].

(G‘orda do‘sti uchun jonini fido qilgan udir. Muhamma alayhissalom ham “g‘ordagi do‘stim” degan. Muhammad alayhissalom g‘orda xazina singari yashiringanida Abu Bakr ajdaho kabi u xazinani qo‘riqladi. Abu Bakr qorong‘u g‘orda do‘sti uchun ranj tortdi. Buning evaziga tiriklik suvi bilan xazina topdi. U topgan xazina ilohiy xazina bo‘lsa ham yonida edi. Bu xazina dunyo vayronasida yashiringan, lekin boshqalar bundan bexabar).

Yuqoridagi misralarda Alisher Navoiy Abu Bakr obrazini yuksak darajada tasvirlashi orqali kitobxonning mazkur obrazga bo'lgan muhabbati yanada oshgan. "Badiiy adabiyot muloqot asosida dunyoga keladi: yozuvchi ijod onlarida tasavvuridagi o'quvchi bilan muloqotda bo'ladi – unga muayyan badiiy informatsiyani yetkazadi, o'zining o'y hislari bilan o'rtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimalargadir ishonitirishga intiladi va h. Ayni shu muloqot – ijod jarayoni asar matnida muhrlanadi" [5.41]. Navoiy yuqorida keltirilgan misralarga kitobxonni ishonitirmaydi, aksincha, uning qalbidagi muhabbatni yanada kuchaytiradi. Chunki kitobxonlar mazkur voqeaning bo'lganligini inkor etmaydilar, faqat ayrim hollarda mohiyatga yeib bormaydilar. Shu sababli ham Navoiy Hudhud tilidan hikoyatlar ketirish orqali dostonning mohiyatini kitobxonga yetkazishga harakat qiladi. "Badiiy adabiyotda ijod jarayoni, san'atkor ongida kechgan ijodiy jarayon akslanadi, san'atkorning ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holati betakror bo'lib, bitta daryoga ikki bor shung'ib bo'lmaganidek, uning xuddi shu ijodiy-ruhiy holatga qayta tushishi mumkin emas" [5.42]. Bunday meznadalar ko'plab asarlarni tahlil qilishimizda katta ahamiyat kasb etadi. "Lison ut-tayr" dostoni, umuman olganda, Navoiyning ko'plab asarlarini bunday mezonlar asosida tahlil qilish asar mohiyatini yetarli darajada ochib berolmaydi. Chunki Navoiy ijdoiga nazar tashlar ekanmiz, muallif bir asarni yaratishdan oldin uni o'zining tafakkur olamida yillar davomida sayqallab, so'ng qog'ozga tushirganligiga guvoh bo'lamiz. "Lison ut-tayr" dostoni 1499-yil yaratilganligini hisobga olsak, Navoiy ellik yil tafakkur ummoniga qayta-qayta sho'ng'ib, undan dur-u gavharlar topganligining guvohi bo'lamiz. Navoiygacha bo'lgan asarlarga nazar tashlar ekanmiz "Mushkulot g'ori", ya'ni Muhammad alayhissalom va Abu Bakrning g'orda yashiringanliklari "Lison ut-tayr" dostonidagi singari ta'riflanmagan. Navoiy xalq og'zaki ijodini va tarixiy haqiqatni yaxshi bilganligi barobarida voqelikni yuksak darajada tasvirleydi. Mazkur jarayonda Muhammad alayhissalomni xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan holda g'ordagi xazina singari, Abu Bakrni esa xazinani qo'riqllovchi ajdahoga qiyoslab tasvirleydi. Bunday badiiy tasvir vositasida tasvirlangan voqelikni o'qigan kitobxon Muhammad alayhissalom va Abu Bakr obrazini yanada oydinroq holda ko'z o'ngida gavdalandiradi. "... gap obrazlar sistemasi haqida borar ekan, asar mazmun-mohiyatini tushunish uchun uni tashkli qilayotgan obrazlarning turfa ko'rinishdagi aloqlarini teran idrok etish talab etiladi" [5.42]. Shu sababli ham mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan asalarning an'anaviy kirish qismini yaxshi anglamay turib asarning mazmun-mohiyatini his qilish mumkin emas. Navoiy Abu Bakrni ajdahoning ilon zahridan ko'z yosh to'kishini yukask mahorat bilan tasvirleydi:

Bas nedur gar topmadi obi hayot,

To jahon bo'lg'ay tirik qolmog'lig' ot.

Chun yilondin zaxm ayog'ig'a yetib,

Obi hayvon no‘shi oni daf’ etib [3.19].

(Bas nima uchun Abu Bakr tiriklik suvini topmadi. Agar topmaganida uning nomi barhayot bo‘lmasdi. Uning oyog‘ini ilon chaqib zahmat yetkazdi. Obi hayot (Payg‘ambarning tupugi) ilon zahrini kesdi).

Yuqoridagi misralarda ko‘rishimiz mumkinki, Abu Bakr Muhammad alayhissalom aytganday Siddiq edi. Ilon oyog‘ini chaqqanda ham ovoz chiqarmadi, lekin og‘riqning zo‘rida ko‘zidan yosh tomidi. Ajdahoning ko‘zidan to‘kilgan qatra ko‘zyoshi “xazina”ni uyg‘otib yubordi. Aslida ilon ajdahoni jarohatlash uchun emas, g‘ordagi yashirin xazinani ko‘rish uchun o‘ziga yo‘l ochmoqda edi. Asardagi qushlar ham simurg‘ni ko‘rish uchun yo‘lga chiqdilar va safar davomida turli mashaqqatlarni boshdan kechirdilar. Ilon ham mashaqqat tortib, xazinani ko‘rish uchun yo‘l izladi, lekin ilojini topmagach xazinabonni chaqdi va xazinani ko‘rib yana iziga qaytdi. “Ijodkorlarning tarixiy faktlarga munosabati, ulardan o‘rinli va samarali foydalana bilish mahorati turlichadir. Bu, avvalo, yozuvchining dunyoqarashiga, tanlagan mavzu bo‘yicha bilimi darajasiga, qolaversa, asardan ko‘zlagan maqsadiga bog‘liq bo‘ladi” [6.136]. Qatra ko‘zyoshi sababli uyg‘ongan Muhammad alayhissalomning voqeani bilgandan so‘ng Abu Bakrning jarohatiga malham qo‘yishi “obi hayvon”, ya‘ni tiriklik suvi deya ta‘riflanmoqda. Mazkur jumlar orqali shuni anglashimiz mumkinki, yuqorida aytib o‘tilganiday Abu Bakrning birinchi bo‘lib iymon keltirishi uning nomini mangu qilgan muhrlamadi. Aksincha, uning muhabbati va bu muhabbat yo‘lidagi tortgan mashaqqatlarini Navoiy Siddiqligi va mushkulot g‘oridagi epizodlar bilan ko‘rsatib bergan, shuning uchun ham muallif beshinchi bobni quyidagi baytlar bilan yakunlaydi:

O‘rnig‘a oni rasul aylab imom,
Oy bo‘lib xurshidg‘a qoyim maqom.
Chun bo‘lib xurshidg‘a voqi’ g‘urub,
Din uyi ul oy furug‘idin yorub.
Yorab, ul oy sham‘i to yovmul-hisob,
Olmasun islom uyidin nuru tob [3.19].

(Muhammad alayhissalom uni o‘rniga imom qilib qoldirdi. Abu Bakr oy kabi bo‘lib quyosh o‘rnini egalladi. Oftob botgandan so‘ng u din uyini oy bo‘lib yoritdi. Ey Parvardigor, bu oyning nuri hisob kuni, ya‘ni qiyomatgacha islom uyidan nurini ketkazmaydi). Mazkur baytlarda ham Navoiy tomonidan chiroyli tashbihlar keltirilgan holda bob yakunlanadi. Muhammad alayhissalomning quyoshga o‘xshatilishi, Abu Bakrning oyga qiyoslanishi badiiyatni, ta‘sirchanlikni kuchaytirgan. Quyoshning botishi va yangi oyning chiqishi olamning zulmatda qolmasligidan nishonadir. Shu bilan bir qatorda Navoiy so‘nggi baytda Abu Bakr haqiga chiroyli tarzda madh ketirgan holda beshinchi bobni yakunlaydi.

Mullif asarning asosiy mazmunidan kelib chiqqan holda muqaddima qismida ham ma'lum bir fikrlarni bayon etgandan so'ng uning isboti sifatida hikoyatlardan foydalanadi. An'anaviy kirish qismidagi hikoyatlarni Navoiy o'z tilidan, ya'ni muallif tomonidan bayon etsa, asosiy qismidagi hikoyatlarni Hudhud tilidan bayon etadi. Beshinchi bobda Abu Bakrning siddiqiligi va sadoqati haqidagi fikrlarni quvvatlash uchun ijodkor Muhammad alayhissalom vafot etgandan so'ng xalifa – Abu Bakrning oldiga bir guruh odamlar keladilar hamda zakotni kamaytirish haqida taklif beradilar:

Mustafodin so'ngra ahli irtidod,
Chun xilofatqa ul o'ldi istinod.
Din tariqida adovat tuzdilar,
Kim hujum aylab jadal ko'rguzdilar.
Bergali islom ruknig'a xalal,
Kim zakot erdi ayon aylab jadal 3.19].

(Muhammad alayhissalodan so'ng ayrim insonlar dindan qaytdi. Bu odamlar musulmonlarni isnodga qo'ydilar. Din yo'lidan qaytgan bu odamlar ixtilof chiqarmoqchi bo'ldilar va dinga hujum qilib, zarar yetkazmoqchi bo'ldilar. Bu yo'lda, avvalambor, islomning besh ustunidan bo'lgan zakotni bekor qilishni talab qildilar).

“Lison ut-tayr” dostonidagi voqelar rivojiga ham e'tibor qaratsak, dastavval, chiroyli va hashamatda yashovchi qushlar o'zlarining hashamatli hayotlaridan kechgilari kelmay, simurg'ularga kerak emasligini aytdilar. Oltinchi bobda keltirilgan hikoyatda ham boylar o'z boyliklaridan zakot bermaslik uchun xalifaga zakotni bekor qilishni taklif etadilar. Shunda Abu Bakr obrazi beshinchi bobda tariflangan “Sodiq-u siddiq” tarzda kitobxonning ko'z o'gida gavdalanitiriladi. Buni uning tilidan keltirilgan quyidagi baytlarda ham ko'rishimiz mumkin:

Ul g'azab aylab bu nav' etti xitob,
Kim nabi qonunidin bir rishta tob.
O'ksamak tag'yir ila imkoni yo'q,
O'ksutur elga qilichdur dog'i o'q.

(Abu Bakr buni eshtib xitob qildi. Payg'ambar qonunidan ip miqdoricha narsa o'zgarmaydi. Bu narsani o'zgartirishning imkoni yo'q. Kim o'zgartirmoqchi bo'lsa unga qilich va o'q javob bo'ladi).

Mazkur baytlarning mazmunidan anglash mumkinki, Abu Bakrning Siddiqiligi hamda u yaxshi ko'rgan insonning aytganlarini o'zgartirmoqchi bo'lganlar uchun yagona javob qilich va o'q ekanligi Navoiy tomonidan kuchli pafos bilan tasvirlanadi. Natijada kitobxon ko'z o'ngida ilon chaqqanida ovoz chiqarmagan, lekin u ishongan narsaga tahdid sezilganda baralla hayqirgan hamda uning himoyasi uchun otlangan Abu Bakr obrazi haybatli tarzda gavdalanadi.

Shar' ishiga ulki mundoq qilsa jahd,
Kim oning osori qolg'ay to bu ahd.
Kim qila olg'ay bu ishni oshkor,
Juz Abubakr ulki erdi yori g'or

(Abu Bakrning shariat ishiga bunday jahd qildi. Shuning uchun uning nomi abadiylikka muhrlandi. Bunday ishni kim ham qila oladi. Faqatgina "G'ordagi do'st" qilishga qodir).

Yetti baytli oltinchi bobning boshida Navoiy Abu Bakrning siddiqligining isboti uchun keltirgan hikoyatni bayon etish barobarida beshinchi bobdagi fikrlarini ham chiroyli tarzda dalillaydi. Bob so'nggida esa Abu Bakrning haqiqiy "ajdaho" ekanligi bunday ishni faqatgina "mushkulot g'oridagi do'st" tomonidan qilinishi mumkinligin ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda asarning asosiy mazmunidan kelib chiqqan holda turli vodiylarda Hudhuddan hikoyatlar eshitgan va uni olqishlagan hamda o'zlari uchun rahnamo qilgan qushlarning turli mashaqqatlarga uchrab qaytganliklari bayon etilgan. O'zlari ishongan narsaga va shaxsga ergashgan sodiqlargina manzilga yetishlariga ishorat qilinadi.

Xulosa. Kirish qismlar asarning umumiy mazmunidan uzilgan an'anaviy qismgina emas, balki ijodkorning ijodiy niyatini amalga oshirishdagi dastlabki qadam ekanligini namoyon etadi. Chahoryorlar obrazining berilishi esa bu jarayonni kitobxonga osonroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ислом, Энциклопедия: А-Х/ Шайх Абдулазиз Мансур таҳрири остида. – Тошкент. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2017.
2. Мустафо Нежат Бурсали. Ҳазрати Абу Бакр Сиддик розияллоху анху. – Тошкент. Фастор пресс, 2023.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XX томлик. XII том. – Тошкент. Фан, 1996.
4. Alixonto'ra Sog'unii. Tarixi Muhammadiy. – Тошкент. Munir. 2021.
5. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент. Akademnashr, 2013.
6. М.Хамидов. Ўзбек адабиётида тарихий ҳақиқат ва бадиий тўқима (Машраб образи мисолида). Ф.ф.б.ф.д. диссертацияси, – Фарғона. 2022.